“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=372

2026-yil
6-son
iyun
ISSN 3093-8546



# Korporativ huquqda ustav kapitalining mohiyati, ahamiyati va turli huquq tizimlarida institutsional vazifalari bo‘yicha qiyosiy-huquqiy tahlil

*Ibrohim Saidov,*
*Toshkent davlat yuridik universiteti Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti*
*Tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi*
*e-mail: i.saidov@gmail.com*

***Аннотация.*** Mazkur maqolada korporativ huquqda ustav kapitalining huquqiy mohiyati, iqtisodiy va institutsional ahamiyati hamda uning kreditorlar manfaatlarini himoya qilishdagi o‘rni qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan. Umumiy huquq (common law) va kontinental huquq (civil law) tizimlarida ustav kapitalining funksiyalari, kapitalni saqlash mexanizmlari hamda kreditorlarni himoya qilish vositalari o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekiston korporativ huquq tizimida ustav kapitalining amaliy qo‘llanilishi, ex-ante va ex-post nazorat mexanizmlarining samaradorligi sud amaliyoti asosida tahlil qilinib, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

***Калит сўзлар.*** ustav kapitali, korporativ huquq, kreditorlar himoyasi, kapitalni saqlash doktrinasi, common law, civil law, ex-ante nazorat

***Аннотация.*** В данной статье проводится сравнительно-правовой анализ правовой природы, значения и институциональных функций уставного капитала в корпоративном праве. Исследуются роль уставного капитала в защите интересов кредиторов, механизмы поддержания капитала, а также особенности регулирования в системах общего (commonlaw) и континентального (civillaw) права. Кроме того, на основе анализа судебной практики рассматриваются проблемы функционирования института уставного капитала в корпоративном праве Узбекистана, оценивается эффективность механизмовех-anteиех-postконтроля и предлагаются пути совершенствования законодательства и корпоративного управления.

***Ключевые слова.*** уставный капитал, корпоративное право, защита кредиторов, доктрина сохранения капитала, common law, civil law, ex-ante контроль

***Annotation.*** This article provides a comparative legal analysis of the legal nature, significance, and institutional functions of share capital in corporate law. It examines the role of share capital in creditor protection, capital

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

maintenance mechanisms, and the regulatory approaches adopted in common law and civil law jurisdictions. The study also analyzes the practical operation of the share capital institution within the corporate law system of Uzbekistan, evaluates the effectiveness of ex-ante and ex-post control mechanisms based on judicial practice, and proposes measures aimed at improving corporate governance and legal regulation in this field.

***Keywords.*** share capital, corporate law, creditor protection, capital maintenance doctrine, common law, civil law, ex-ante control

Ustav kapitali korporativ huquqda faqat jamiyatni ta’sis etish vaqtida shakllanadigan hisob birligi emas, balki xo‘jalik jamiyati, uning ishtirokchilari va kreditorlari o‘rtasidagi risklarni taqsimlashning institutsional mexanizmidir. U cheklangan javobgarlik prinsipida xavflarni sug‘urtalovchi “kafolat” sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababi, ustav kapitali bir nechta asosiy funksiyalarni bajaradi. Jumladan, u xo‘jalik jamiyatlarning mulkiy asosini va ishtirokchilarning ulushlari miqdorini belgilash funksiyalari bilan birga kapitalni saqlash, dividendlar, ulushni qaytarish, qayta sotib olish va kreditorlar bilan hisob-kitob qilishda ta’minot funksiyalarini bajaradi[1].

Umumiy huquq *(common law)* tizimida ustav kapitali instituti tarixan kapital barqarorligini ta’minlashga qaratilgan *capital maintenance* doktrinasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Biroq zamonaviy ingliz korporativ huquqida ushbu institut endilikda qat’iy “muzlatilgan kapital” mexanizmi sifatida emas, balki, avvalo, korporativ tuzilmaning oshkoraligini ta’minlash, ulushlar hajmini aniqlash va dividendlar taqsimlashni huquqiy jihatdan tartibga solish vositasi sifatida talqin etiladi[2:272]. Shu bois umumiy huquq tizimida ustav kapitali bilan bog‘liq *ex-ante* nazorat, asosan, ustav kapitalini ko‘paytirish va kamaytirishning formal tartib-qoidalari, shuningdek dividendlarni faqat taqsimlanadigan foyda hisobidan to‘lash talabi orqali amalga oshiriladi. Ayni paytda ushbu tizim kreditorlar manfaatlarini himoya qilishda faqat dastlabki kapital talablariga tayanib qolmaydi. Balki ko‘proq noqonuniy o‘tkazmalar, to‘lovga qobiliyatsizlik holatlari hamda direktorlarning fidutsiar majburiyatlari buzilganida yuzaga keladigan javobgarlik kabi *ex-post* mexanizmlarga suyanadi.

Kontinental huquq *(civil law)* tizimida, ayniqsa Germaniya korporativ huquqida, ustav kapitali ancha markaziy o‘rin egallaydi. GmbHG va AktG qonunlari kompaniyaning tashkil topishi uchun minimal kapital talablarini, kapitalni saqlash rejimini va ishtirokchilarga aktivlarni qaytarish bo‘yicha cheklovlarni aniq belgilaydi. Bunday modelda ustav kapitali nafaqat ro‘yxatdan o‘tishning formal sharti, balki kreditorlar uchun ma’lum darajadagi mulkiy tayanch, korporativ intizomning tashkiliy asosi va aktivlarni “ushlab turuvchi” institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi[3]. Olimlarning fikricha, umumiy huquq tizimi kreditorlarni himoya qilishni ko‘proq funksional ravishda tarqoq instrumentlar

orqali amalga oshirsa, kontinental huquq tizimi bu vazifani sezilarli darajada ustav kapitalining o‘ziga va uning saqlanishi rejimiga bog‘laydi. Kontinental huquq tizimida ustav kapitali, ayniqsa kompaniya aktivlarini ishtirokchilardan ajratib turish va kreditorlar uchun minimal xavfsizlik hududini yaratish nuqtai nazaridan, mustaqil institutsional ahamiyat kasb etadi[4].

Biroq zamonaviy qiyosiy korporativ huquqda ushbu institutning real samaradorligi, ayniqsa kreditorlarni himoya qilishdagi roli yuzasidan jiddiy bahslar mavjud. Chunki ustav kapitalining nominal miqdorda belgilanishi har doim ham jamiyatning haqiqiy moliyaviy barqarorligini, uning to‘lovga qobiliyatliligini yoki kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajarish imkoniyatini aks ettirmaydi. Shu sababli bir qator olimlar ustav kapitalini kreditorlar uchun ishonchli moddiy kafolat emas, balki ko‘proq tashkiliy-huquqiy intizom vositasi sifatida baholaydilar. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti chuqurlashgan va korporativ moliyalashtirish vositalari murakkablashgan sharoitda kreditorlar manfaatlarini faqat ustav kapitali orqali himoya qilish yetarli bo‘lmay qolmoqda. Natijada zamonaviy huquqiy tizimlarda kreditorlarni himoya qilishda ustav kapitali institutidan tashqari, majburiy oshkor qilish, direktorlarning fidutsiar majburiyatlari, to‘lovga qobiliyatlilik testlari, noqonuniy dividendlar bo‘yicha cheklovlar hamda to‘lovga qobilyatsizlik mexanizmlari kabi qo‘shimcha ***ex-ante*** va ***ex-post*** nazorat choralariga tobora ko‘proq tayanilmoqda.

O‘zbekiston korporativ huquq tizimi o‘zining tarixiy rivojlanishi, normativ tuzilishi va huquqiy texnikasi jihatidan kontinental huquq oilasiga kiradi. Amaldagi Fuqarolik kodeksi, “Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar to‘g‘risida”gi qonun va aksiyadorlik jamiyatlari haqidagi qonunchilikda ustav kapitali xo‘jalik jamiyatlari tashkiliy-mulkiy bazasi, ishtirokchilar ulushlarini aniqlovchi ko‘rsatkich va kreditorlar manfaatlari bilan bog‘liq korporativ institut sifatida qaraladi. Biroq amaliyotda ushbu institutning real samarasi ko‘plab hollarda zaiflashgan. Formal ravishda kontinental huquq modeliga mansub bo‘lgan ushbu tizimda ustav kapitali ko‘pincha tashkil etish uchun talab etiladigan rasmiy shartga aylanib qolgan. Ammo u doimo real iqtisodiy tayanch, benefisiar nazorat va kreditorlar uchun amaliy xavfsizlik funksiyasini bajarmaydi[5].

Tahlil qilingan sud qarorlari O‘zbekiston korporativ boshqaruvida ustav kapitalini shakllantirishga oid *ex-ante* nazorat mexanizmi amalda yetarli darajada samarali ishlamayotganini ko‘rsatadi. Buning asosiy sababi shundaki, mazkur nazorat ko‘pincha korporativ munosabatlarning haqiqiy iqtisodiy va boshqaruv mazmunini emas, balki asosan rasmiy hujjatlar mavjudligini tekshirish bilan cheklanadi. Natijada ro‘yxatdan o‘tkazish va ustav kapitalini shakllantirish jarayonida hujjatlar ortida turgan real holat, ya’ni kim jamiyatni haqiqatan boshqarayotgani, mol-mulk amalda topshirilgan yoki topshirilmagani, korporativ nazorat vositalari qaysi shaxs qo‘lida jamlangani kabi muhim masalalar e’tibordan chetda qolmoqda.

Sud amaliyotida, xususan, yuridik shaxslarning nominal ta’sischilar va direktorlar orqali ro‘yxatdan o‘tkazilgani, haqiqiy boshqaruvchi shaxs yashirilgani, elektron raqamli imzo, muhr va bank kalitlari uchinchi shaxslar qo‘lida to‘plangani, shuningdek ustav fondiga mol-mulk kiritilganligi haqidagi hujjatlar real topshirish-qabul qilish jarayonisiz rasmiylashtirilgani aniqlangan. Bundan tashqari, ayrim holatlarda birlamchi buxgalteriya hujjatlarining mavjud emasligi yoki qasddan yo‘q qilingani ham kuzatilgan[6]. Eng muhim jihati shundaki, vakolatli nazorat organlari bunday qonunbuzarliklarni, odatda, korporativ faoliyat boshlanib bo‘lgach va zararli oqibatlar yuzaga kelgach, ya’ni keyingi taftish va tekshiruvlar orqali aniqlagan. Bu esa O‘zbekistonda ustav kapitali bilan bog‘liq *ex-ante* nazorat tizimi real iqtisodiy mazmunni oldindan verifikatsiya qiluvchi mexanizm sifatida emas, balki ko‘proq formal-huquqiy rasmiylashtirish vositasi sifatida ishlayotganini ko‘rsatadi.

Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston korporativ boshqaruvida ustav kapitali bilan bog‘liq bir qator tizimli muammolar mavjud. Avvalo, ustav kapitalini shakllantirish bo‘yicha verifikatsiya mexanizmlari uning haqiqiy iqtisodiy mazmunini emas, asosan hujjatlarning formal mavjudligini tekshirishga tayanadi. Ikkinchidan, ustav kapitalini natura shaklida shakllantirish va mol-mulkni jamiyatga real topshirish-qabul qilish ustidan nazorat yetarli emas. Uchinchidan, jamiyat aktivlarining keyinchalik saqlanishi hamda ularning ishtirokchilar yoki boshqa shaxslar tomonidan noqonuniy o‘zlashtirilishini erta aniqlash mexanizmlari zaif. To‘rtinchidan, bank, soliq, notarius va korporativ reyestr ma’lumotlari o‘rtasida ustav kapitali va sof aktivlar holatini muntazam kuzatib boruvchi yagona integratsiyalashgan tizim shakllanmagan[7]. Nihoyat, direktorlarning fidutsiar majburiyatlari, shuningdek norasmiy yoki soyadagi direktorlarni javobgarlikka tortish mexanizmlari qonunchilik va sud amaliyotida yetarli darajada rivojlanmagan[8]. Natijada ustav kapitali instituti O‘zbekistonda o‘zining ex-ante va ex-post funksiyalarini to‘liq amalga oshira olmayapti.

Mazkur bo‘shliqlarni bartaraf etish uchun, avvalo, jamiyatni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonida haqiqiy benefisiar mulkdor va haqiqiy boshqaruvchi shaxsni kuchaytirilgan verifikatsiya qilish mexanizmini joriy etish lozim. Shu bilan birga, ustav kapitaliga kiritilgan pul mablag‘lari va mol-mulkning amalda shakllanganini bank, soliq, notarial va boshqa reyestrlar bilan o‘zaro integratsiyalashgan tartibda tekshirish zarur. Natura shaklidagi hissalar bo‘yicha esa mustaqil baholash, real topshirish-qabul qilishni tasdiqlovchi raqamli iz hamda tegishli birlamchi hujjatlar tizimini kuchaytirish talab etiladi.

Bundan tashqari, jamiyatning sof aktivlari qiymati kamayganda yoki aktivlar g‘ayrioddiy tarzda chiqarib yuborilganda avtomatik tarzda ishga tushadigan risk-indikatorlar tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Shuningdek, nominal direktorlik, soxta

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

hujjatlashtirish, ustav kapitalini rasmiy ravishda mavjud qilib ko‘rsatib, uni amalda shakllantirmaslik yoki keyinchalik chiqarib yuborish holatlari uchun direktorlar, benefisiar shaxslar va jamiyat ustidan real nazoratni amalga oshiruvchi shaxslarning fuqarolik-huquqiy javobgarligini aniq belgilash zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. John Armour, “Share Capital and Creditor Protection: Efficient Rules for a Modern Company Law?” (Cambridge Judge Business School Working Paper, 1999)

2. Paul Davies “Principles of modern company law”, Sweet & Maxwell, 9 nashr, 272 bet

3. Gesetz betreffend die Gesellschaften mit beschränkter Haftung (GmbHG), §§ 5, 30, 31.

4. Peter O. Mülbert, “A Synthetic View of Different Concepts of Creditor Protection”, ECGI Working Paper, 2006.

5. EBRD, Corporate Governance in Uzbekistan: Country Assessment Report, 2020

6. Jinoyat ishlari bo‘yichaYashnobod tuman sudining 1-1009-2307/403; 1-1009- 2302/11-sonli jinoyat ishlari

7. R.Saburov “Soxta imzo, tasdig‘ini topgan jinoyat va nizoli garov: Toshkentda tadbirkor o‘zgalar qilmishini deb mulkidan ayrilib qolmoqda” 09.04.2026, kun.uz

7. Ibrohim Said “Top-menejerlarga fidutsiar majburiyat yuklash: afzalliklar va risklar”, 08.05.2025, kun.uz